



Didaktika – o‘qitishning nazariy va amaliy jihatining asosi sifatida

Aminova Sevinchoy Sirojiddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Gavhar ko‘ chasi 1 Toshkent 100149
Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasida
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi BT-23-01 guruh talabasi.
sevinchaminova0206@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada didaktikaning mohiyati, uning o‘qitish jarayonidagi nazariy va amaliy ahamiyati, shuningdek, ta‘lim sifatini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Didaktika o‘qitishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asosda o‘rganadigan fan sifatida talaba va o‘qituvchining faoliyatini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Maqolada didaktikaning tarixiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ta‘lim tizimidagi roli hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan o‘zaro aloqasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: didaktika, o‘qitish jarayoni, ta‘lim metodlari, nazariya va amaliyot, pedagogika, ta‘lim sifati, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, pedagogik mahorat, o‘qitish samaradorligi, ta‘lim islohoti, o‘quv motivatsiyasi, didaktik vositalar, ta‘lim strategiyalari, o‘quv dasturi, metodika, tahlil va baholash, ijodiy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, pedagogik innovatsiya, ta‘lim tizimi, o‘quv muhiti, ta‘lim jarayonini boshqarish.

Дидактика – как основа теоретических и практических аспектов обучения.

Аминова Севинчой Сирожиддин кизи

Ташкентский университет прикладных наук улица
Гавхар 1 Ташкент 100149

"Студент группы ВТ-23-01 направления начального образования кафедры
"Теория и методика начального образования." педагогического факультета."
sevinchaminova0206@gmail.com

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность дидактики, её теоретическое и практическое значение в процессе обучения, а также роль в повышении качества образования. Дидактика как наука, изучающая содержание, формы, методы и средства обучения на научной основе, служит гармонизации деятельности преподавателя и учащегося. В статье анализируются исторические этапы развития дидактики, её роль в современной системе образования и взаимосвязь с инновационными педагогическими технологиями.

Ключевые слова: дидактика, процесс обучения, методы обучения, теория и практика, педагогика, качество образования, инновационные технологии,

компетентностный подход, педагогическое мастерство, эффективность обучения, образовательная реформа, учебная мотивация, дидактические средства, образовательные стратегии, учебная программа, методика, анализ и оценка, творческий подход, личностно-ориентированное обучение, педагогические инновации, система образования, учебная среда, управление образовательным процессом.

Didactics – as the basis of the theoretical and practical aspects of teaching.

Aminova Sevinchoy Sirojiddin qizi

Tashkent University of Applied Sciences,

Gavhar Str. 1, Tashkent 100149, Uzbekistan

"Student of group BT-23-01, Department of 'Theory and Methodology of Primary Education'. ' of the Faculty of Pedagogy, majoring in Primary Education."

sevinchaminova0206@gmail.com

Abstract. This article explores the essence of didactics, its theoretical and practical significance in the teaching process, as well as its role in improving the quality of education. Didactics, as a science that studies the content, forms, methods, and means of teaching on a scientific basis, serves to harmonize the activities of teachers and students. The article analyzes the historical stages of the development of didactics, its role in the modern education system, and its interrelation with innovative pedagogical technologies.

Keywords: didactics, teaching process, teaching methods, theory and practice, pedagogy, quality of education, innovative technologies, competence-based approach, pedagogical mastery, teaching effectiveness, educational reform, learning motivation, didactic tools, educational strategies, curriculum, methodology, analysis and assessment, creative approach, learner-centered education, pedagogical innovation, education system, learning environment, management of the educational process.

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan bilimli, tafakkur qiluvchi va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayonda didaktika fani muhim o'rin egallaydi. Didaktika – pedagogika fanining o'qitish va ta'lim jarayonlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganuvchi sohasi bo'lib, uning vazifasi ta'lim mazmunini, metodlarini, shakllarini, vositalarini va natijalarini chuqur tahlil qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning negizida aynan didaktik yondashuv, ya'ni o'qitish jarayonining ilmiy asosda tashkil etilishi turadi. Shu boisdan ham, didaktika nafaqat o'qituvchining nazariy bilimlarini shakllantirishda, balki ularni amaliyotda qo'llash malakasini rivojlantirishda ham asosiy rol o'ynaydi. Didaktika tarixiy jihatdan uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan fan sanaladi. Uning asoslari qadimgi yunon faylasuflari – Sokrat, Platon, Aristotel ta'limotlarida uchraydi. Biroq didaktikani mustaqil ilmiy soha sifatida shakllantirgan olim – chex pedagogi Yan Amos Komenskiy bo'lgan. U

o'zining mashhur "Didactica Magna" asarida o'qitishning umumiy qonuniyatlari va prinsiplari, o'quvchiga yondashuvlar haqida chuqur fikrlar bildirgan. Komenskiyning g'oyalari hozirgi kunda ham didaktikaning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Didaktikaning zamonaviy talqini o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, interaktiv metodlardan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undash kabi talablarga asoslanadi. Bu esa o'qituvchilardan chuqur nazariy bilim, puxta pedagogik mahorat va o'qitish uslublarini to'g'ri tanlay olish malakasini talab qiladi.

Mazkur maqolada didaktika fanining nazariy asoslari, uning asosiy tushunchalari, tamoyillari, metodlari va amaliy qo'llanilishi har tomonlama tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, har bir pedagog o'z faoliyatida ta'limning nazariy asoslariga tayangan holda, uni amaliyotda qo'llash orqali sifatli ta'limga erishishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Didaktika- pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» "o'rgatuvchi", «didasko» esa – "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jixatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va xokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan. Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635 28 yillar) tomonidan kiritildi. Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) "Buyuk didaktika" nomli mashxur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy "didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash xam", deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muxim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi. Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib kursatadilar. Xozirgi davrda didaktika- o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika soxasi sifatida tushuniladi. Didaktika- so'zi lotincha bo'lib, o'qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o'rganadi. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bulishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bogliq. Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti- deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini kursatadilar. Didaktika -ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni xayotga tayyorlash amalga oshiriladi.

Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi – o'quv materiali, o'quvchi - boshka o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Ta'limga ushbu munosabatning ustuvorligiga dolzarbdir. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi. Didaktika- predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit

o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni uzlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axlokiy sifatlarni uzlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat. Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jixatlarini birgalikda o'rganish

Xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda to'tgan xolda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyixalashtirish obyekti sifatida qaraydi. Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning uzaro bog'liqligi va aloqadorligi xisoblanadi. Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat: - ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish; - ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish; - ta'lim jarayoni uchun xos bulgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini taxlil qilish va ta'riflash. Didaktika-nazariy va bir vaqtning uzida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jixatlari o'rtasidagi bog'likliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir. O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogika taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shu kuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik edago xalqlarning kad. Shonu shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'kligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogika sining eng so'nggi yutuklaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qi-tish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari b-ngina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik karashlari ularning ko'plab edagogic asarlari, darelik va qo'llanmalarida aks etgan. Turkistonda Okt. to'ntarishi tufayli qaror topgan sho'rolar zamonida didaktika avtoritar

pedagogikaning bir tarmog‘i sifatida deyarli hamisha tarbiyaga qarshi qo‘yib kelindi. Milliy tajribalarga tayanmagan, ta‘lim jarayonining mazmunini yangilashga qobil bo‘lmagan, maktab didaktikasini mafkura zug‘umidan xalos eta olmagan sotsialistik pedagogika uning tashqi jihatlarini pardoqlab, yaltiratib ko‘rsatishga alohida e‘tibor berdi. Turli-tuman usullar o‘ylab topildi, ko‘pdan-ko‘p „ilg‘or“ tajribalar yoyildi. Lekin ta‘limda kutilgan samaraga erishilmadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishtandan so‘ng o‘zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo‘nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o‘zgarishi pedagogik tafakkurning sog‘lomlashuviga, u esa, o‘z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to‘g‘ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta‘limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta‘lim jarayoni uchun bilim emas, balki o‘quvchi shaxsi asosiy kadriyat ekanligini anglatadi. Bunda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o‘rin beriladi. Didaktika nafaqat nazariy bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi, balki u o‘qitish jarayonining real amaliy tomonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ta‘sir, avvalo, o‘qitish metodlari, vositalari, shakllari va natijalari orqali namoyon bo‘ladi. Amaliy jihatdan didaktika – bu ta‘lim jarayonini tashkil etishning puxta rejalashtirilgan, maqsadga yo‘naltirilgan, pedagogik qonuniyatlarga asoslangan tizimidir. Didaktikaning amaliy jihatlarini quyidagilarni qamrab oladi: Darsni tashkil etish va rejalashtirish: Har bir dars maqsadli, aniq, izchil va tizimli tashkil etilishi kerak. Bu borada didaktika o‘qituvchiga darsning strukturasini belgilab beruvchi modelni taklif qiladi: kirish, yangi bilimni bayon qilish, mustahkamlash, nazorat va baholash. Pedagogik texnologiyalarni tanlash va tatbiq etish: Bugungi ta‘limda an‘anaviy yondashuvlardan tashqari, innovatsion, interaktiv, muammoli ta‘lim, klaster, “aql charxi”, “B-B-B” (bilaman–bilmoqchiman–bildim) kabi metodlardan foydalanish keng qo‘llanilmoqda. Bularning har biri o‘ziga xos didaktik ahamiyatga ega. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir o‘quvchi o‘ziga xos intellektual salohiyatga ega. Shuning uchun ta‘lim metodlari tanlanayotganda ularning yosh, psixologik va intellektual xususiyatlari hisobga olinadi. Bu – differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ta‘limda o‘quv faoliyatini faollashtirish: Didaktikadagi amaliy yondashuv o‘quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantirishga qaratiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlash, rol o‘ynash, loyihaviy ishlar, munozara va debatlar kabi faol metodlardan foydalaniladi. O‘qitishning natijadorligini baholash: Baholash faqatgina nazorat qilish emas, balki ta‘lim sifatini aniqlovchi muhim bosqichdir. Didaktik jihatdan baholash jarayoni reyting tizimi, portfolio, test topshiriqlari, diagnostika metodlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: 1) o‘qitish; 2) ta‘lim berish; 3) o‘qish. Didaktikaning o‘qitish kategoriyasi- ta‘limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi. Didaktikaning ta‘lim berish kategoriyasi quyidagilarni bildiradi: bilim berish; ma‘lumotlar uzatish; o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish; o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish; o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish; o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash. Ta‘lim berish kategoriyasi

o'qituvchining (pedagogning) faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Didaktikaning o'qish kategoriyasi quyidagilarni ifodalaydi: o'quvchilarning davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi; o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishi; o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va mustaqil fikrining shakllanishi. O'qish kategoriyasi ta'lim oluvchilar faoliyati bilan amalga oshiriladi. Didaktikaning asosiy vazifasi -o'quv faoliyatini amalga oshirishdir.

Xulosa

Didaktika faqatgina ta'lim- tarbiya jaroyoni emas balki zamonaviy o'qituvchi qiyofasi uning ta'limi- tarbiyasi va ijodkor bo'lishidir. Mening o'z maqolamda zamonaviy o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi, ijtimoiy ongini yuksaltiruvchi, millat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi yetakchi shaxsdir. Uning faoliyati faqat dars bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining qalbiga yo'l topish, uni jamiyatga foydali shaxs qilib tarbiyalash, hayotga tayyorlash bilan chambarchas bog'liq. Shu boisdan, ta'lim tizimini isloh qilishda o'qituvchi shaxsini takomillashtirish, uning malakasini oshirish va maqomini mustahkamlash — zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolishi haqida aytib o'tilgan. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator va zamonaviy texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llay oladigan mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda o'qituvchidan faqat dars berish emas, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ularda kreativ fikrlash, mustaqil o'rganish va zamon talablariga mos kompetensiyalarni shakllanadi. O'qituvchilar o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham Didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. Didaktika – pedagogika fanining yuragi, o'qitishning nazariy asoslarini belgilovchi va uning amaliy ko'rinishlarini hayotga tadbiq etuvchi muhim sohadir. Ushbu maqolada didaktikaning nazariy va amaliy asoslari, rivojlanish bosqichlari, ta'lim jarayonidagi o'rni, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli har tomonlama tahlil qilindi.

Avvalo, didaktika o'qitish jarayonining asosiy komponentlarini (maqsad, mazmun, metod, vosita va natija) o'z ichiga olgan holda, ta'lim tizimini ilmiy asosda tashkil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komenskiy Y.A. "Buyuk didaktika".
2. Hasanboev J. "Pedagogika asoslari".
3. Axmedov N. "Umumiy pedagogika".
4. Qurbonov S. "Ta'lim metodlari va vositalari".
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunlari va normativ hujjatlari.
6. Zamonaviy pedagogika va didaktika bo'yicha ilmiy maqolalar, internet manbalari.

7. Yoʻldoshev, Qozoqboy. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
8. Karimov I., Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori, Toshkent, 1997.